



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 4-noyabr, № 235 (8578)

Shanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI SAMMITIDA MUHIM TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi.



Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida o'tgan tadbir Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, shuningdek, TDT bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, TDT doirasidagi ko'p qirrali munosabatlarning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi. O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonada tili, dini va ma'naviy qadriyatlarini bir-biriga chambarchas bog'langan turkiy xalqlarning ovozi dunyo bo'ylab yanada baland, yanada kuchliroq yangrayotganini ta'kidladi. Tashkilot bugungi kunda

shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro institutlar tizimida o'ziga xos muhim o'ringa ega bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, davlatimiz rahbari global xavfsizlikni ta'minlashda yangi muammolar yuzaga kelayotgani, xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish holatlari ko'payib borayotganini ko'rsatib o'tdi. Falastin — Isroil mojarosi keyingi paytda xavfli tus olgani jiddiy xavotirga solayotgani qayd etildi. Qurolli to'qnashuvlar

ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar orasida qurbonlar va jarohat olganlar soni keskin ortib, nizoning keng yoyilib ketish xavfi kuchaymoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston yetakchisi tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlarga barham berib, o't ochishni to'xtatishga, gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga chaqirdi. Falastin — Isroil muammosini BMT rezolyutsiyalariga muvofiq "ikki xalq uchun ikki davlat" tamoyili asosida hal etish zarurligi

borasida O'zbekistonning pozitsiyasi qat'iy ekani bildirildi. O'zbekistonning TDT mamlakatlari bilan hamkorligi xususida so'z yuritir ekan, davlatimiz rahbari mamlakatimiz Tashkilotning barcha a'zolari bilan strategik sheriklik aloqalarini o'rnatganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi. O'tgan yili Samarqand sammitida imzolangan muhim hujjatlar izchil bajarilmoqda. Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama va uzoq muddatli

aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, Turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o'tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan Turkiy dunyo xartiyasini ishlab chiqish taklif qilindi. (Davomi 2-betda.) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich!
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Avvalambor, siz, azizlar bilan yana diyor ko'rishib turganimdan g'oyat mamnunman. Bugungi sammitni yuksak darajada tashkil etgani uchun Qozog'iston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga chuqur minnatdorlik izhor etaman. So'zimizni buyuk ajdodimiz — qadimiy turk davlati asoschilaridan biri Bilga Xoqonning quyidagi da'vati bilan boshlamoqchiman: "Ey turkiy elim, o'zligingga qayt, o'zingni angla — yanada yuksalgaysan!" Ushbu ibratli so'zlar bugungi shiddatli zamonada — Turkiy davlatlar tashkiloti o'z faoliyatini tobora takomillashtirib borayotgan bir davrda albatta chuqur ma'noga ega. Tili, dini va yuraklari bir-biriga chambarchas bog'langan qardosh xalqlarimiz ovozi endilikda dunyo bo'ylab yanada baland, yanada kuchliroq yangramoqda. Fursatdan foydalanib, do'st Qozog'iston elini yaqinda keng nishonlangan mamlakat milliy bayrami — Respublika kuni munosabati bilan chin qalbidan muborakbod etaman. Shuningdek, Turkiya Prezidenti, qardoshim Rejep Tayyip Erdog'an Janobi Oliyalarini va butun turk xalqini Respublika e'lon qilingan kunning qutlug' 100-yillik tantanalari bilan samimiy tabriklayman. Hurmatli sammit ishtirokchilari! Barchangiz yaxshi bilasiz, turkiy dunyoda do'st Ozarbayjon xalqi o'zining munosib o'rni va katta obro'-e'tiboriga ega. So'ngi yillarda Ozarbayjon xalqi qadri birodarim Ilhom Haydarovich yetakchiligida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Tarixiy adolat qaror topib, mamlakatning ajralmas qismi bo'lgan Qorabog' hududini bunyodkorlik makoniga aylantirish borasida ulkan natijalarga erishilmoqda. Men avgust oyida Shusha va Fuzuliy shaharlarida bo'lib, keng ko'lami o'zgarishlarga, zamonaviy infratuzilma barpo etilayotgani, vayron bo'lgan madaniy meros obyektlari qayta tiklanayotganiga shaxsan guvoh bo'ldim. Ozarbayjon xalqini buyuk g'alaba — mamlakat hududiy yaxlitligi to'liq tiklangani bilan yana bir bor chin yurakdan samimiy tabriklayman.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!
Turkiy davlatlar tashkiloti bugungi kunda shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro institutlar tizimida o'ziga xos muhim o'ringa ega bo'lib bormoqda. 160 million aholini qamrab olgan Tashkilotimiz hududi katta iqtisodiy imkoniyatlar makoni hamdir. Bizning mamlakatimiz Tashkilotning barcha a'zolari bilan strategik sheriklik aloqalari o'rnatganini katta mamnuniyat bilan aytib o'tmoqchiman. O'tgan yili "Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari" shiori ostida bo'lgan Samarqand sammitida imzolangan hujjatlar hayotga izchil tatbiq etilmoqda. O'zbekiston raisligi davrida yuzdan ortiq turli tadbirlar o'tkazildi, muhim tashabbuslar ilgari surildi. "Turkiy nigoh — 2040" konseptual dasturi asosida amaliy hamkorlikning yangi va yanada samarali mexanizmlari yaratildi. Jumladan, Turkiy davlatlar Kasaba uyushmalari tashkiloti, Fazo tadqiqotlari akademiyasi, Jug'rofiy kengash, Qurg'oqchilikni bartaraf etish instituti, Notarial idoralar uyushmasi kabi yangi tuzilmalar ish boshladi. Qator nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar — Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning turli ixtisoslashtirilgan institutlari, Islom hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha kengash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan yaqin sheriklik aloqalari o'rnatildi. Global iqtisodiy inqiroz kuchayib borayotganiga qaramasdan, olib borayotgan tizimli ishlarimiz natijasida o'zaro savdo hajmi o'smoqda. O'zbekistonning raisligi davrida bizga faol ko'mak ko'rsatgan barcha davlatlarga va Tashkilot Kotibiyatiga yana bir bor minnatdorlik bildiram. Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Barchamiz guvoh bo'lyapmiz, bugungi kunda jahon miqyosida ishonch inqirozi tobora avj olmoqda. Global xavfsizlikni ta'minlashda yangi muammolar yuzaga kelmoqda va xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish holatlari kuchaymoqda. Ayniqsa, Yaqin Sharqda uzoq vaqtдан buyon davom etayotgan Falastin — Isroil muammosining nihoyatda xavfli tus olgani barchamizni jiddiy xavotirga solmoqda. Qurolli to'qnashuvda tinch aholi, ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar orasida

qurbonlar va jarohat olganlar soni keskin ortib, nizoning keng yoyilib ketish xavfi kuchaymoqda. Shu munosabat bilan tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlarga barham berib, o't ochishni to'xtatishga, gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga chaqiramiz. Mazkur muammoning yagona va eng adolati yechimi — nizoni "ikki xalq uchun ikki davlat" tamoyili asosida hal etishdir. Falastin xalqi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalarida belgilanganidek, mustaqil davlat barpo etish huquqiga ega. Biz Tashkilotimiz doirasida bu boradagi yakdill va qat'iy pozitsiyamizni butun dunyoga e'lon qilishimiz zarur. Hurmatli sammit qatnashchilari! "Turkiy davr" shiori ostida o'tayotgan bugungi sammitimizda ko'p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarimizni yanada kengaytirishga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman. Birinchidan, Tashkilot doirasida o'zaro hurmat, ishonch va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash, birgalikda turli to'siqlarni samarali yengib o'tish bosh maqsadimizdir. Shu munosabat bilan Turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o'tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan "Turkiy dunyo xartiyasi"ni ishlab chiqish zarur, deb hisoblayman. Ushbu o'ziga xos ramziy qomusni sohaning yetuk oilmlari va ekspertlar ishtirokida tayyorlashni taklif qilaman. Ikkinchidan, shu kunlarda Turkiy investitsiya fondi o'z ishini boshlaydi. Davlatlarimiz o'rtasida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish maqsadida Kelgusida Markaz imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, birgalikda savdo to'siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko'paytirish bo'yicha yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur.

Uchinchidan, Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot markazini tashkil etish bo'yicha boshlangan amaliy ishlarni to'liq ma'qullaymiz. Kelgusida Markaz imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, birgalikda savdo to'siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko'paytirish bo'yicha yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur. To'rtinchidan, global logistika zanjirlari va transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Yuk tashuvlariga o'sib borayotgan talabni qondirish maqsadida O'rta koridor salohiyatini kengaytirish choralarini qo'llab-quvvatlaymiz. Shuningdek, qo'shimcha ko'p tarmoqli yo'nalishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o'tadigan koridorlarni rivojlantirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish tarafdorimiz. Davlatlarimiz Temir yo'l idoralari kengashini ta'sis etishni va bu tuzilmaning direksiyasini yurtimizda joylashtirishni taklif etamiz. Beshinchidan, ekologiya sohasida keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdormiz. Qadimdan ajdodlarimiz ona tabiat bilan uyg'un va hamohang bo'lib yashaganlar. Afsuski, bugungi kunda tabiatga nisbatan iste'molchilik kayfiyati kuchayib bormoqda. Iqlim o'zgarishlari tufayli yuzaga kelayotgan turli muammolardan butun insoniyat qattiq aziyat chekmoqda. Bunday holat barchamizdan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumining tuzilishi bu yo'lda muhim qadam bo'lishi, shubhasiz. Bunday ta'sirchan mexanizm Tashkilotimiz faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan rejalarimizga mosdir. Oltinchidan, turkiy sivilizatsiyani yuksaltirish g'oyasi texnologik taraqqiyot va ilg'or bilimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bevosita bog'liqdir. Ijodiy fikrlaydigan, iste'dodli va shijoatli yoshlarimiz istiqbolda turkiy dunyoning yangi Rennessansini barpo etishiga ishonchim komil. Bu yo'lda ularga buyuk ajdodlarimiz yaratgan ilmiy kashfiyotlar va ma'naviy meros mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlash o'rinishi, o'tgan asrda yashagan jaded bobolarimizning ibratli faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish yuzasidan a'zo mamlakatlarda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqol

va davlatchilik g'oyalari" mavzuidagi xalqaro anjumanda vakillaringizni faol ishtirok etishga taklif etamiz. Shu bilan birga, yangilikka intilib yashaydigan, tashabbuskor o'g'il-qizlarni rag'batlantirish uchun O'zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman. Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Ming yillar davomida tarixi va taqdiri turkiy elatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p millatli Afg'oniston zaminida tinchlik va osoyishtalik o'rnatish mintaqamizda strategik barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartidir. Biroq dunyoning boshqa nuqtalarida nizo va urushlar avj olayotgan hozirgi sharoitda ushbu muammo xalqaro hamjamiyat e'tiboridan tobora chetda qolmoqda. Afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytmaslik, bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqiramiz. Bizga mintaqaviy sheriklik va barcha qo'shnilari bilan iqtisodiy hamkorlik jarayonlarida faol ishtirok etadigan, tinch va barqaror Afg'oniston kerak. Biz ilgari surayotgan Transafg'on temir yo'lini barpo etish tashabbusi aynan mana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi. O'zbekiston afg'on xalqiga bundan buyon ham zarur yordamni berib boradi. Termizdagi logistika xabi orqali gumanitar ko'mak ko'rsatishni, ta'lim markazida esa afg'on fuqarolarini o'qitishni faol davom ettiramiz. Qadrli do'stlar! Fursatdan foydalanib, Davlat rahbarlari kengashida raislikni qabul qilib olayotgan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga ulkan zafarlar tilayman. Bugun qabul qilinayotgan muhim hujjatlar va qarorlar, jumladan, sammit deklaratsiyasi hamda Ostona akti mamlakatlarimizning yorqin turkiy kelajak sari navbatdagi dadil qadamlari bo'lishiga ishonaman. O'z tarixi davomida ko'p-ko'p sinovlarni boshidan kechirgan va ularga birgalikda yechim topgan qardosh xalqlarimiz kelgusida ham buyuk ishlarni amalga oshirishi, shubhasiz. E'tiboringiz uchun rahmat.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI SAMMITIDA MUHIM TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida Turkiy taraqqiyot bankini tashkil qilish ishlarini faollashtirish muhimligi qayd etilib, ushbu moliya muassasasini Toshkent shahrida joylashtirish taklifi bildirildi.

Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot markazini ochish bo'yicha boshlangan amaliy ishlarni to'liq ma'qullab, O'zbekiston Prezidenti markaz imkoniyatlaridan savdo to'siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko'paytirish bo'yicha yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirishda unumli foydalanish zarurligiga e'tibor qaratildi.

Global logistika zanjirlari va transport yo'laklarini rivojlantirish, diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish masalalari dolzarb ekanini ta'kidlandi. Shu ma'noda, davlatimiz

rahbari O'rta koridor salohiyatini kengaytirish, qo'shimcha ko'p tarmoqli yo'nalishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o'tadigan yo'laklarni rivojlantirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatladi.

Tashkilotning Temir yo'l idoralari kengashini ta'asis etish va bu tuzilmaning direksiyasini O'zbekistonda joylashtirish taklif qilindi.

Ekologiya sohasida hamkorlikni mustahkamlash maqsadida vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumini tuzish tashabbusi ilgari surildi.

O'zbekiston yetakchisi ijodiy fikrlaydigan, iste'dodli va shijoatli yoshlar istiqbolida turkiy dunyoning yangi Renessansini barpo etishiga ishonch bildirdi. Yangilikka intilib yashaydigan, tashabbuskor o'g'il-qizlarni rag'batlantirish uchun O'zbekistonda Turkiy dunyo kreativ

yoshlari markazini ochish taklif qilindi.

Jadid bobolarimizning ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish muhimligini qayd etib, O'zbekiston Prezidenti TDT mamlakatlari vakillarini joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqbol va davlatchilik g'oyalari" mavzuidagi xalqaro anjumanda faol qatnashishga taklif qilindi.

So'zini yakunlar ekan, O'zbekiston rahbari ishtirokchilar e'tiborini ming yillar davomida tarixi va taqdiri turkiy elatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p millatli jafokash Afg'oniston xalqiga qaratdi.

Mamlakatimiz yetakchisi afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytmaslik, bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqirdi.

Majlisi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Vengriya, Turkmaniston delegatsiyalari rahbarlari, tashkilot bosh kotibi ham so'zga chiqdi.

Sammit yakunida TDT doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qator bitim va qarorlar qabul qilindi.

Tashkilotga raislik Qozog'iston Respublikasiga o'tdi.

Turkiy davlatlar tashkiloti Davlatlar rahbarlari kengashi yig'ilishi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga turkiy xalqlar oilasining birligini mustahkamlashga, turkiy mamlakatlarning manfaatlarini va qarashlarini xalqaro maydonda faol ilgari surishga qo'shgan ulkan hisssasi uchun yuksak mukofot — "Turkiy dunyoning oliy ordeni"ni tantanalil topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban,

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov ishtirok etdi.

Tashkilot davlatlari rahbarlari nomidan mukofotni Qozog'iston Prezidenti topshirdi.

— Bu mukofotni men, birinchi navbatda, chinakam birodarlik rishtalari asosida yangidan yuksalayotgan yaqin do'stligimiz va hamkorligimiz ramzi, deb bilaman, — dedi marosimda davlatimiz rahbari hamkasblarga minnatdorlik bildirib.

Oxirgi davrda Turkiy dunyoning nufuzi va salohiyati har qachongidan ham ko'proq yuksalayotgani alohida qayd etildi. O'zbekiston 2019-yilda TDTga a'zo bo'lib kirganidan buyon mamlakatimiz tomonidan turkiy davlatlar o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan 50 dan ortiq taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Mamlakatimizning tashkilotga raisligi davrida 100 dan ziyod turli tadbirlar o'tkazildi, amaliy hamkorlikning yangi samarali mexanizmlari yaratildi, nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin sheriklik aloqalari yo'lga qo'yildi.

Tashkilotga a'zo barcha davlatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalar izchil kengaymoqda, strategik sheriklik munosabatlari o'rnatildi, savdo hajmlari ortmoqda, kooperatsiya kuchaymoqda.

— Barchamizning orzu va maqsadlarimiz, intilish va harakatlarimiz uyg'un va hamohangdir. Azaldan do'st va qardosh bo'lgan turkiy xalqlarimiz bundan keyin ham ahil va hamjihat bo'lib, yorug' kelajakni birgalikda bunyod etadilar, — dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

O'ZBEKISTON TOMONIDAN BILDIRILGAN TAKLIFLAR

turkiy dunyoning boy madaniy, tarixiy va iqtisodiy salohiyatidan foydalanishga qaratilgan strategik qarashlarni yaqqol aks ettiradi

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-3-noyabr kunlari Qozog'iston poytaxti Ostonada bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi.

Sammitda so'zga chiqqan O'zbekiston Prezidenti tashkilot bugungi kunda shakllanayotgan yangi dunyo tartibini va xalqaro institutlar tizimida o'ziga xos muhim o'ringa ega bo'lib borayotganini alohida ta'kidladi.

Dunyo nigohi

Davlatimiz rahbari global xavfsizlikni ta'minlashda yangi muammolar yuzaga kelayotgani, xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish holatlari ko'payib borayotganini ko'rsatib o'tdi.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev Falastin — Isroil marjosi keskinlashib borayotganidan xavotirlikni bildirib, tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlarga barham berib, o't ochishni to'xtatishga, gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga chaqirdi. Davlatimiz rahbari Falastin — Isroil muammosini BMT rezolyutsiyalariga muvofiq "ikki xalq uchun ikki davlat" tamoyili asosida hal etish zarurligini borasida O'zbekistonning pozitsiyasi qat'iy ekanini bildirdi.

Shuningdek, nutqda O'zbekistonning tashkilotga raisligi va turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash borasidagi ishlar haqida ma'lumot berildi.

Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Sammit doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga turkiy xalqlar oilasining birligini mustahkamlashga, turkiy mamlakatlarning manfaatlarini va qarashlarini xalqaro maydonda faol ilgari surishga qo'shgan ulkan hisssasi uchun yuksak mukofot — "Turkiy dunyoning oliy ordeni"ni tantanalil topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbarining Ostonada shahrida o'tkazilgan TDT sammitidagi nutqida ilgari surilgan muhim tashabbuslar, o'z navbatida, xalqaro ijtimoiy-siyosiy va ekspert doiralari vakillari tomonidan ham yuksak baholanoqda.

Emmanuel DYUPUYI,
Fransiyaning Yevropada
istiqbollar va xavfsizlik instituti
(IPSE) prezidenti:



— Fransiyada mintaqadagi integratsiya jarayonlari diqqat bilan kuzatib borilmoqda. TDT sammiti yakunlari O'zbekiston va TDTga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi samarali hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qiladi.

Tashkilotga a'zo davlatlarning ustuvor yo'nalishlarga muvofiq oliy darajada muloqotni davom ettirish majburiyati barcha turkiy xalqlar farovonligi va xavfsizligining kafolatidir.

O'tgan yillar davomida O'zbekiston ushbu xalqaro tuzilmaning chinakam munosib a'zosi bo'lib, unda yetakchi sifatida muhim rol o'ynadi. Tashkilot doirasida, avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport-kommunikatsiya, ekologik, madaniy-gumanitar va boshqa

sohalarda ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga oid O'zbekiston rahbari tomonidan bildirilgan tashabbuslar buning tasdiqidir.

Ilgar VELIZADE,
"Janubiy Kavkaz"
siyosatshunoslar klubi rahbari:



— O'zbekiston o'zi a'zo bo'lgan xalqaro tuzilmalar rivojiga doimo amaliy hissa qo'shgan va qo'shib kelmoqda. Toshkent TDTga nisbatan yaqinda a'zo bo'lganiga qaramay, shu qisqa vaqt ichida ham O'zbekiston rahbari tomonidan bildirilgan turkiy davlatlarni yaqinlashtirish va hamkorlik qilishga qaratilgan tashabbuslar o'zining amaliy ifodasini topdi.

Toshkent tuzilma davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularning tranzit-transport salohiyatini oshirish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Ostonadagi sammitda so'zlagan nutqida ishtirokchilarning nafaqat iqtisodiyot va transport, balki gumanitar masalalarga ham qiziqishini oshirgan qator yangi takliflar bilan chiqdi. Uning O'zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochish borasidagi tashabbusining ahamiyatini ta'kidlash kifoya.

Bundan tashqari, Temir yo'l idoralari kengashini ta'asis etish va ushbu tuzilmaning direksiyasini O'zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surdi. Ushbu taklif nafaqat TDTga a'zo davlatlarning, balki mintaqadagi tashqari mamlakatlarning manfaatlarini ta'minlovchi global transport va logistika markaziga aylantirish rejalariga juda mos keladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning TDT oliy ordeni bilan taqdirlangani O'zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan va amalga oshirilayotgan tashabbuslarning ahamiyati hamda dolzarbligi, shuningdek, O'zbekiston yetakchisining butun turk dunyosi xalqlari hamjihatligini mustahkamlashdagi shaxsiy rolining yorqin tasdiqidir.

Fariza SHAM,
Malayziya Islom sivilizatsiyasi
instituti direktori:

— O'zbekiston TDTga a'zo bo'lganidan buyon tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish uchun jiddiy sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Boshqa a'zo davlatlarning faolligi, shuningdek, 15 ta davlatning tashkilotga kuzatuvchi sifatida qo'shilishiga qiziqishi sezilarli darajada oshdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashkilot a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga ko'maklashish maqsadida 50 dan ortiq tashabbus va takliflarni ilgari surdi. Amalga oshirilgan tashabbuslar orasida Yosh tadbirkorlar forumini uyushtirish,

transport va bojxona tartib-qoidalarini raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish, Turkiy investitsiya jam'armasini tashkil etish to'g'risidagi bitimni imzolash va boshqa ko'plab masalalar alohida e'tiborga loyiqdir.

O'tgan sammitda O'zbekiston rahbarining Falastin — Isroil inqirozi bo'yicha qat'iy munosabati, Yaqin Sharqda harbiy harakatlarni to'xtatish va muammoni "ikki xalq uchun ikki davlat" tamoyili asosida hal qilishga chaqiruvi uning donishmandligini yana bir bor namoyon etdi.

O'zbekiston rahbarining sammit chog'ida e'lon qilingan yangi tashabbuslari ham mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash nuqtayi nazaridan juda muhim va dolzarbdur. Jumladan, Turkiy taraqqiyot bankini ta'asis etish va ushbu moliya muassasasini Toshkent shahrida joylashtirish, Turk dunyosi rizomini ishlab chiqish, transport yo'laklari va yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish, global logistika ta'minot zanjirlarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha takliflarni alohida ta'kidlamoqchiman.

Jon LI,
TMC Akademiyasi bosh direktori
(Singapur):



— Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar rivojini va misli ko'rilgan sa'y-harakatlarni diqqat bilan kuzatib boraman hamda TMC Akademiyasi nomidan hayrat va e'tirofimi mamnuniyat bilan bildirmoqchiman.

O'zbekiston yetakchisining turkiy davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga intilishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Uning TDT sammiti ishidagi faol ishtiroki nafaqat O'zbekistonning milliy sa'y-harakatlarini namoyish etadi, balki a'zo davlatlar o'rtasida umumiy o'sish va sinergiyaga yo'l ochadi. TDT hamjihatlik qudrati, musharakat tarixi va o'zaro monand qarashlardan dalolat beradi. Qayd etish kerakki, O'zbekistonning tashkilotga raisligi uning salohiyatini yanada kuchaytirdi.

Respublikaning raislik davridagi misli ko'rilgan muvaffaqiyat va yutuqlari turkiy dunyoda hamkorlikni rivojlantirish va taraqqiyotga sodiqligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ta'asis etilishi, O'zbekistonning Turkiy madaniyati xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lishi e'tiborga loyiqdir.

TDTning so'nggi sammitlarida O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan qator tashabbuslar turkiy dunyoning boy madaniy, tarixiy va iqtisodiy salohiyatidan foydalanishga

yo'naltirilgan strategik qarashlarni yaqqol aks ettiradi.

TMC Akademiyasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning rahbarligi va O'zbekistonning TDTdagi faol rolidan ilhomlanishi davom etmoqda. Ishonamizki, bugun qo'yilgan umumiy qadriyatlar va o'zaro hurmatga asoslangan mustahkam poydevor barcha ishtirokchi mamlakatlarni farovonlik sari eltadi.

Yaqub Shayx,
Pokiston Senat a'zosi:

— Pokistonlik siyosatchilar, ishbilamonlar va ekspertlar O'zbekiston Prezidentining TDT Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqini diqqat bilan kuzatib bordi.

O'zbekiston rahbariyati tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarda savdo-iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, logistika, transport,



mintaqaviy hamkorlik va investitsiya sohalarida o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, O'zbekiston rahbari o'z nutqida shu kunlarda Turkiy investitsiya jam'armasi ish boshlaganini ta'kidladi. Bu TDTda ishtirok etuvchi mamlakatlar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari bilan yuk tashishni rivojlantirish bo'yicha ko'p yillardan buyon shug'ullanib kelayotgan tadbirkor sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan taklif qilingan savdo to'siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko'paytirish borasida yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini ravnaq toptirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni eshitib, juda xursand bo'ldim.

O'zbekiston Prezidentining global ta'minot zanjirlari va transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, TDT davlatlari orqali Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga o'tuvchi yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish bo'yicha tashabbuslari ham alohida e'tiborga loyiqdir.

Pokiston va O'zbekiston bu boradagi ishlarni boshlab yuborgan. Transafg'on temir yo'lini barpo qilish uchun Loyiha ofisi tashkil etildi.

Bundan tashqari, transport xizmatlarini raqamlashtirish tashabbusi XXI asrda iqtisodiyotlarni yanada yaqinlashtirish, tajriba, texnologiyalar va bilim almashish uchun asos bo'ladi. 2022-yilda Pokiston global iqlim o'zgarishining halokati oqibatlariga guvoh bo'ldi va suv toshqinlaridan qattiq jabrlandi. Shu bois jahon hamjamiyatining diqqatini bu masalaga doimiy qaratib kelayotgan O'zbekiston Prezidentidan minnatdormiz.

Kuban ABDIMEN,
qirg'izistonlik siyosatshunos:

— Bugungi global dunyoda TDT davlatlari umumiy vaziyat haqida yetarlicha tasavvurni namoyish etmoqda. Tashkilotning barcha a'zo va kuzatuvchi-davlatlarining ayni damdagi qarashlari birligi ko'p jihatdan qardosh

mamlakatlar rahbarlarining tez-tez uchrashib turishi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so'nggi yillardagi faol siyosati TDTga yangi sifat qo'shdi va xalqaro e'tirofini kengaytirdi.

O'zbekistonning TDT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasidagi barcha takliflari doimo keng qo'llab-quvvatlangan va muvaffaqiyat qozongan. O'zbekistonning salohiyati ulkan, Prezident Shavkat Mirziyoyev TDT doirasida ham, boshqa formatlarda ham o'z mamlakatining barcha imkoniyatidan foydalanish uchun zarur sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston yetakchisi turkiy dunyoni buyuk kelajak kutayotganini, uni turk dunyosining mehnatkash, bag'rikeng va oliyanob xalqlari bilan birgalikda barpo etishini ta'kidladi. Buni real dunyo va undagi turkiy xalqlarning o'rni haqida katta tasavvurga ega siyosatchi aytishi mumkin edi.

Shavkat Mirziyoyevning turkiy dunyo kelajagiga strategik qarashlari O'zbekistonning TDT doirasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash va kengaytirish tarafdori ekanligini tasdiqlaydi.

Shu nuqtayi nazardan Turkiy davlatlar tashkilotining Ostonadagi sammiti umumiy maqsadlarga erishish yo'lidagi navbatdagi qo'shma qadam bo'ldi. Unda ilgari surilgan tashabbuslar turkiy dunyoning yanada taraqqiyoti va ravnaqi yo'lida ko'p qirrali o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi mazmun bilan to'ldirdi.

O'zbekistonning TDTga raisligi yili global dunyoda keskin va turkiy dunyo mamlakatlari uchun mintaqada



barqarorlikni saqlash imkoniyatlarini izlash davriga to'g'ri keldi.

O'zbekiston tashkilotiga raislik qilgan 2022-2023-yillarda muhim kelishuvlar, jumladan, savdo va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, shuningdek, Investitsiya jam'armasini tashkil etish to'g'risidagi kelishuvlar imzolandi.

Shu vaqt ichida turli format va darajadagi 30 dan ortiq yirik tadbirlar o'tkazildi. Ularda TDTni institutsional isloh qilish, yangi iqtisodiy imkoniyatlar uchun maydon yaratish, transport aloqasini mustahkamlash va oziq-ovqat sohasida hamkorlikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston taklifi bilan turkiy xalqlar tarixida ilk bor turkiy dunyoning ilmiy, madaniyat va san'at sohalaridagi rivojiga qo'shgan hisssasi uchun atqili shaxslarga yangi ta'asis etilgan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot berildi.

O'tgan bir yil ichida O'zbekiston Xalqaro turkiy madaniyat tashkilotiga to'la huquqli a'zo bo'ldi. Shu bilan birga, TURKSOY tashkil etilganing 30 yilligi tantanalil ravishda nishonlandi.

Ostonada O'zbekistonning tashkilot nufuzi va maqomini mustahkamlashga qo'shgan hisssasi alohida qayd etildi. O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan ko'plab tashabbuslar faol qo'llab-quvvatlandi. Ularning hayotga tatbiq etilishiga hech shubha yo'q.

"Dunyo" AA.

Aks sado

DO'STLIK VA QARDOSHLIK RISHTALARI BILAN MUSTAHKAMLANGAN HAMKORLIK

O'zbek va qozoq xalqlari ko'p asrlik do'stlik rishtalari bilan chambarchas bog'langan. Umumiy tariximiz, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz bizni birlashtirib turadi.

Ikki davlat Prezidentlarining siyosiy irodasi va uzoqni ko'zlab amalga oshirayotgan oqilona siyosati natijasida keyingi yillarda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga chiqmoqda.

Ayniqsa, oxirgi olti-yetti yildan buyon O'zbekiston — Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlik yuqori sur'atlarda rivojlanayotgi. Asrlar davomida yonma-yon, quda-anda bo'lib yashagan xalqlarimiz o'rtasidagi bordini aloqalar ko'z o'ngimizda faollashmoqda.

Mamlakatlarimiz yetakchi kompaniya va korxonalar o'rtasida kooperatsiya asosida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Transport sohasida yangi avtobus va temir yo'l yo'nalishlari ochildi, shaharlar o'rtasidagi aviaqatnovlar ko'paytirildi, yuk tashish hajmi ortmoqda.

Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar haqida gapirganda, parlamentlararo aloqalar ham izchil rivojlanib borayotganini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu yo'nalishdagi hamkorlik ikki mamlakat parlamentlari vakillarining tashriflari orqali mustahkamlanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan ushbu davlatga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarda yangi davrni boshlab berishi, shubhasiz.

Sir emaski, Turkiy davlatlar tashkiloti turkiyazon mamlakatlar o'rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, xususan, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy, energetika, turizm, madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni kengaytirish, mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston tuzilmaga qo'shilganidan buyon Shavkat Mirziyoyev tomonidan tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha ko'plab tashabbus va takliflar ilgari surildi. Ostonada bo'lib o'tgan Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ham Prezidentimiz ko'plab taklif va amaliy tashabbuslarni ilgari surdiki, bular xalqaro hamjamiyat tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishiga shubha yo'q. Xususan, O'zbekistonning TDT mamlakatlari bilan hamkorligi xususida to'xtalib, yurtimiz tashkilotning barcha a'zo davlatlari bilan strategik sheriklik aloqalarini o'rnatganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Haqiqatan ham, o'tgan yili Samarqand sammitida imzolangan muhim hujjatlar bugun izchil bajarilmoqda. Masalan, O'zbekiston raisligi davrida turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yuzdan ortiq turli tadbirlar o'tkazilib, muhim tashabbuslar ilgari surildi. Yangi tuzilmalar tashkil etilib, bir qator nufuzli global va mintaqaviy tashkilotlar bilan yaqin sheriklik aloqalari o'rnatildi.

Hozirgi kunda ekologik muammolar har bir mamlakat oldida turgan eng muhim masalalardan biri sanaladi. Sammit doirasida davlatimiz rahbarining ekologiya sohasida hamkorlikni mustahkamlash maqsadida vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumini tuzish tashabbusi muhim chaqiriqlardan biri bo'ldi, desak, mubolag'a emas.

Qisqacha aytganda, hozirgi vaqtda dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlar, turli tahdid va xatarlar, oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim o'zgarishi va ekologiya bilan bog'liq muammolar tashkilotga a'zo davlatlar oldiga dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Bu jarayonda O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi ishtiroki xalqimizning tub manfaatlariga javob beradi.

Muqaddas TIRKASHEVA,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATINI KUCHAYTIRISH — DAVR TAQOZOSI

Xabaringiz bor, Oliy Majlis Senati tomonidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan birgalikda o'quv seminarlari va uchrashuvlar o'tkazilib, ularda amalga oshirilayotgan ishlar sarhisob qilinmoqda hamda istiqboldagi vazifalar belgilab olinmoqda.

Muloqot

Shunday tadbirlarning galdagisi kuni kecha hududlardagi senatorlar, mahalliy Kengashlarning doimiy komissiyalari raislari hamda kotibiyat mudirlari ishtirokida bo'lib o'tdi.

Onlayn shaklda o'tkazilgan uchrashuv avvalida Oliy Majlis

Senati Raisi joylarda qonun ustuvorligini ta'minlash, hududlar manfaatiga doir muhim qarorlar qabul qilish, nazorat vositalaridan samarali foydalanish masalalariga atroflicha to'xtaldi. Ayni chog'da mahalliy Kengashlar tomonidan nazorat-tahlil tadbirlarini kuchaytirish, hududlarni

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahallalarning infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan dasturlar hamda "Tashabbusli budget"da g'olib bo'lgan loyihalar ijrosini o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi aytiladi.

Buning uchun deputatlar joylardagi aholi muammolarini hal qilishda tashabbus ko'rsatishi, muammolar yechimini qabul qilinishga qarorlarda aks ettirib, ular ijrosi ustidan qat'iy deputatlik nazoratini izchil yo'lga qo'yishi talab qilinadi.

Uchrashuvda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida mahalliy

Kengashlarni xalqning chinakam ovozigacha aylantirish va ular faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash masalasi ham tahlildan o'tkazildi. Ya'ni mahalliy vakillik organlari faoliyatiga doir qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish, mahalliy Kengashlarning o'ziga xos bo'lmagan funksiyalarini bekor qilish, faoliyatini raqamlashtirish masalalari bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Qayd etilganidek, joriy yilning 22-sentyabrida mahalliy Kengashlar faoliyatini zamon

talabiga mos tashkil etish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun Oliy Majlis Senatida Hududiy vakillik organlarini o'rganish markazi tashkil qilingan bo'lib, bu tuzilma mahalliy Kengashlarga huquqiy, uslubiy, axborot-tahliliy jihatdan ko'maklashadi.

Tadbirda mahalliy Kengashlar deputatlari ham aholi bilan muntazam muloqot qilish va islohotlarning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlashda faollik ko'rsatish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

"Xalq so'zi".



Abdulla ORIPOV, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri

Savob

Ajvi saratonda hansirab, yonib,
Qovrilib olovli yo'llar taftida,
Muzdayin buloqdan suv ichgach qonib,
Hordiq olganmisan chinor tagida?

Ruhingda safoyu taningda mador,
Umiddaxsh qo'shiqlar kuylaganmisan?
O'sha payt, o'sha on hech qarsa bir bor
Chinorni kim ekan — o'yaganmisan?

Ro'baro' kelding sen toshqin daryoga,
Qolding sohil uzra chorasiz, giryon,
Lekin yo'liqqanday ajib ro'yoga,
Qarshingda bir ko'pri bo'ldi namoyon.

Bamisli uzala tushgan xor vujud,
Ko'targay u turfa insonlar korin.
O'tding sen daryodan salomat va but,
Lekin o'yadingmi ko'pri me'morin?

O'rmonlar bag'rida sayr etgan sayyoh,
Changalzor qo'ynida sargardon ovchi,
Mo'jaz boshpanani ko'rdingmi nogoh,
Uni qoldirmishdir qay bir yo'lovchi.

Qoldirmish u senga qaro kun uchun,
Bir chindim tuz bilan bir juft chaqmoq tosh.
O'yab ko'rganmisan, bu himmat nechun,
O'yab ko'rganmisan, kimdir u g'amdosh?

Ha, inson umrining kechmishi ajab,
Goh to'ng'ar, goho u yashnar qulf urib...
O, balki qaysi bir fidoyi sabab,
Yuribsan sen hayot nash'asin surib.

Ayt, axir o'zing ham to borsan sobit,
Kimsaga nasiba uzatganmisan?
Ko'changda lapanglab o'iganda tobut,
Sen uni to'rt qadam kuzatganmisan?

Chorasiz bir inson uchragan damda,
Unsi so'rog'iga qildingmi javob?
Ayt-chi, bilarmisan, yorug' olamda
Bularning barchasi atalgay savob.

Yo'q, yo'q, o'zga erur bid'at va karam,
Himmatu saxovat tiriklarga xos.
Boblar betama qurgan dunyo ham
Asli savob uchun qolgan bir meros.

Kimdir tuzar uni, kimdir buzadi,
Kimdir borini ham qiladi barbod.
Kimdir tama bilan dunyo kezadi,
Kimdir o'ksik dilni etadi obod.

Savob deb ingraydi dunyomiz behol,
Zordir u najotbaxsh hislom sehriga.
Janglarda toliqqan majruh zot misol,
Suyanib yashar u inson mehriq.

To hayot ekanmiz savobga zormiz,
Yilt etgan shu'ladan dillar fayziyob.
Goh g'amgin, goh esa umidga yormiz,
Yo'qolmasa deymiz dunyodan savob.

Axir uning bilan gullagay ochun,
Axir uning bilan umrlar shoyon.
Faqat savob borki, jahon bus-butun,
Faqat savob borki, azizdir Inson!

Qisqa satrlarda



QONUNCHILIK PALATASI QO'MITALARIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi.

Mazkur qonun loyihasida Bolalar ombudsmanining vazifalari, huquqlari va majburiyatlari, faoliyatining asosiy jihatlari, murojaatlarni ko'rib chiqish tartib-taomillari, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi nazarda tutilmoqda.

Ishchi guruh yig'ilishida deputatlar, mutaxassislar tomonidan qonun loyihasini takomillashtirish bo'yicha berilgan har bir taklif atroflicha muhokama qilinib, loyiha matniga singdirilmoqda.

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zolari "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Surxondaryo viloyatida joylashgan Termiz daryo porti, "Gulbahor" va "Termiz avtoyo'i" xalqaro o'tkazish punktlariga tashrif buyurdi.

Ushbu jarayonda deputatlar Davlat chegarasini ke-sib o'tayotgan shaxslarga va transport vositalariga, olib o'tilayotgan tovarlarga nisbatan nazorat tartib-taomillari, ularni Davlat chegarasi orqali o'tkazish jarayonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga O'zbekiston Respublikasiga kirish hamda O'zbekiston Respublikasidan chiqishga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi tomonidan "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun loyihasi hamda Byudjetnoma dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizga, 2025 — 2026-yillarda esa yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik belgilanmoqda.

Shuningdek, o'rta muddatda asosiy soliq stavkalarini o'zgartirishdan saqlab qolish, soliq va budget siyosatini bosqichma-bosqich Jahon savdo tashkilotining talablariga uyg'unlashtirish hamda yillik budjetni shakllantirishda "Natijaga yo'naltirilgan budget" tizimini bosqichma-bosqich to'laqonli joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Qonun loyihasining muhokamasi davom etmoqda.

Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi tomonidan "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 7, 9, 11, 18-moddalari ijro etilishi Buxoro va Xorazm viloyatlari misolida nazorat-tahlil tartibida o'rganish yulklariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Muhokamalar davomida deputatlar qonun ijrosi doirasida amalga oshirilgan ishlarni ijobiy baholash bilan birga, chet davlatda uzoq muddat davomida bo'lib, yashash joylariga qaytib kelayotgan mehnat migrantlarini OIV infeksiyasiga tekshiruvni kuchaytirish, kasallikka chaligan bemorlarni davolash kurslari bilan qamrab olish bo'yicha zarur taklif va tavsiyalar berdi.

Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonunning Tashqi ishlar vazirligi tizimida ijro etilishi holati bo'yicha yig'ilish o'tkazildi.

Tadbirda deputatlar tomonidan xalqaro shartnomalar va boshqa xalqaro hujjatlar loyihalarini tayyorlash, loyihalar yuzasidan manfaatdor vazirlik, idoralarning takliflarini olish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash, tahlil qilish va umumlashtirish kabi jarayonlarda sohadagi yetuk ekspertlar hamda parlament vakillari bilan aloqalarni yanada jadallashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi, qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Parlament axborot markazi.

Senator va hayot

QORAQALPOQ'ISTONNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MASALALARI QANDAY HAL ETILMOQDA?

Kuni kecha Nukus shahrida Oliy Majlis Senatining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya hamda Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi bilan hamkorlikda sayyor majlis tashkil etildi.

Unda qator masalalar, jumladan, hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandlegini ta'minlash, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Qoraqalpog'istonni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari sa'y-harakatlari bilan Orol dengizining qurishi oqibatida mintaqada yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratib kelinayotir. Buni keyingi yetti yil davomida Prezidentimizning Qoraqalpog'istonni kompleks rivojlantirishga, tub islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan 30 dan ziyod Farmon va qarorlari qabul qilinishi va ular doirasida ulkan ishlar ro'yog'ga chiqarilayotgani misolida ham ko'rish mumkin.

Ayniqsa, Prezidentimizning 2020-yil 11-noyabrdagi "2020 — 2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim ahamiyat kasb etyapti. Negaki, shu hujjat doirasida 2020 — 2023-yillarda 10,6 trln. so'mlik 1271 ta loyiha ishga tushirilib, 13 ming 940 ta yangi ish o'rni tashkil etilgan. Davlatimiz rahbarining 2022-yil

25-oktyabrdagi qarorida esa umumiy qiymati 293,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan jami 289 ta obyektga qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, hozirga qadar 289 ta obyektga jami 234,1 mlrd. so'mlik qurilish-ta'mirlash yumushlari bajarilgan.

Aholi bandlegini ta'minlash masalasi ham doimiy e'tiborda. Yangi ish o'rnlari yaratish, ishizlarni talab yuqori kasb-hunarga tayyorlash hamda malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilikka ixtisoslashtirilgan 12 ta mikromarkaz ishlab turibdi.

Imkoniyati cheklangan 1279 nafar shaxs bandlegini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan alohida dastur asosida ularning 1195 nafari ish joyiga ega bo'lgan. Bandlek bo'limlari tomonidan o'tgan davrda 46,8 ming ishsiz fuqaroga xizmat ko'rsatilib, 27,2 ming nafari ishga joylashtirilgan.

O'tkazilgan bo'sh ish o'rni yarmakalarida 2,8 ming nafar fuqaroga ishga yo'llanmalar berilgan, 724 nafari kasb-hunarga o'qitish kurslariga yuborilgan, 285 nafari jamoat ishlariga jalb qilingan. Ayni chog'da 2,4 mingga yaqin ishsiz fuqarolarga 6,7 mlrd. so'm nafaqa to'langan, 7 ming band bo'lmagan aholi haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilib, ularga 6,1 mlrd. so'm berilgan.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi

"Xalq so'zi".

KADRLAR TAYYORLASHDA YANGI YONDASHUV

Buxoro shahrida "Davlat boshqaruvi xodimlarining zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish: O'zbekiston va Janubiy Koreya istiqbollari" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Xalqaro konferensiya

Tadbirni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori A. Bekmurodov kirish so'zi bilan ochdi. Shundan so'ng Buxoro viloyati hokimi B. Zariqov so'z olib, to'planganlar e'tiborini ushbu anjuman aynan Janubiy Koreya vakillari bilan hamkorlikda o'tkazila-

yotgani omillariga qaratdi. — Bir necha ming yillik milliy davlatchilik tarixiga ega bo'lib, ma'lum bir davrda mustamlakachilik qiyinchiliklarini boshdan kechirgan Janubiy Koreya bilan mamlakatimiz tarixining o'xshash jihatlari ko'p, — dedi u. — Ushbu mamlakatning, xususan, keyingi yillarda iqt-

isodiy rivojlanish borasida katta muvaffaqiyatlarga erishishda davlat boshqaruvi va kadrlar tizimidagi izchil islohotlar muhim rol o'ynagan. Bino-barin, mazkur konferensiyada o'rtaga tashlanadigan ilmiy va amaliy takliflar, o'zaro tajriba almashish kadrlar salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Anjumanda Koreya Respublikasi Bosh vaziri huzuridagi Koreya davlat boshqaruvi instituti prezidenti Sangxan Chve, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzu-

ridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining birinchi o'rinbosari O. Hasanov va boshqalar konferensiya kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr-mulohazalarini bayon etdi.

Tadbir kadrlar tayyorlash, ularni joy-joyiga qo'yish, ishga yondashuv kabi masalalarda to'plangan xorijiy tajribani o'rganish, istiqbolda undan amaliyotda foydalanish nuqtayi nazaridan foydali bo'ldi.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

Anjuman

SOHIBQIRON BOBOMIZ VA TEMURIYLARNING JAHON SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O'RNI

Urganch davlat universitetida Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi tomonidan qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Sohibqiron Amir Temur va temuriylarning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzuida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi. Unda temurshunos olimlar, ziyolilar, tadqiqotchilar, talabalar qatnashdi.

Tadbirda Sohibqiron bobomiz Vatanimiz tarixidagi ikkinchi Uyg'onish davri bunyodkori ekanini ta'kidlandi. Uning saltanatida bunyodkorlik, ilm-fan, adabiyot, madaniyat nihoyatda rivojlangani qayd etildi.

Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi raisi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali o'z ma'ruzasida Amir Temur siyomosining jahon tarixida tutgan o'rni haqida to'xtalar ekan, uning nomi jahon ommaviy axborot vositalarida turlicha atalishga doir dolzarb mulohazalarni bildirdi. Amir Temur nomiga hurmat-ehrim bilan yondashish, manbalarda bir xil bayon qilish muhim ekaniga urg'u qaratdi. Ayni paytda ulug' siyomlarga tarixiy vaziyat nuqtayi nazaridan yondashish va baho berish eng to'g'ri yo'i ekanini ta'kidladi.

Olimlarning ma'ruzalari shonli o'tmishimiz hamda buyuk ajdodlarimiz, xususan, Amir Temur va temuriylar, jumladan, Sohibqiron bobomizning kelini Sevinbeka — Xonzoda xonim, Xorazm tarixiga oid yangi ma'lumotlar keltirildi.

Anjuman savol-javoblarga foy bo'ldi, qizg'in kechdi. Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi faollari qatnashgan nishonlari va faxriy yorliqlari topshirildi.

M. QO'CHQOROV.

11-noyabr — O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni

FIDOYI KASB SOHIBLARIGA EHTIROM

Davlatimiz rahbarining nodavlat va notijorat tashkilotlarga, jumladan, mamlakatimizdagi eng yirik jamoat birlashmasi bo'lgan kasaba uyushmalari faoliyati rivojiga ko'rsatayotgan e'tibori natijasida mamlakatimizda 11-noyabr — O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni sifatida keng nishonlab kelinmoqda.

Ayni kunlarda ushbu sana oldidan yurtimizning barcha hududidagi korxonalar, tashkilot va muassasalarning mehnat jamoalarida mehnatkashlar bilan ochiq muloqot hamda uchrashuvlar, davra suhbatlari, seminarlar, ilg'or va faol mehnatkashlarni rag'batlantirish, madaniy-ma'rifiy hamda sport tadbirlari o'tkazilmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri poytaxtimizda O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasining Toshkent shahar bo'limi kasabasi kengashi tomonidan "Yurt taraqqiyoti yo'lida birlashaylik" shiori ostida o'tkazildi.

Bayram tadbiriga xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimida mehnat qilayotgan o'qituvchi va murabbiylar, professorlar va ilm-fan sohasi fidoyilari, yosh mutaxassislar, kasaba uyushma faollari va faxriylar taklif etildi.

Tadbirda keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbuslari bilan barcha jabhada bo'lgani kabi ijtimoiy-mehnat munosabatlari sohasida ham amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar va ularning mehnatkashlar turmush farovonligini oshirishdagi muhim ahamiyati, o'qituvchilarga

ko'rsatilayotgan yuksak ehtirom va yaratib berilayotgan imkoniyatlar alohida ta'kidlandi.

Mehnat qonunchiligining tobora takomil topib borayotgani, mamlakatimizda davlat, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan samarali ijtimoiy sheriklik va uning natijalari xususida so'z bordi. Mazkur jarayonlarda O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi ham o'z faoliyatini takomillashtirish bilan birga ishchi-xodimlar manfaatlari yuzasidan tizimli ishlarini amalga oshirayotgani, ish beruvchilar bilan jamoa shartnomalari imzolab, mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat sohasidagi huquqlari himoyasini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish borasida tizimli ishlar olib borayotgani qayd etildi.

Tadbirda 35 nafar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan ustoz va murabbiylar, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ishchi-xodimlariga O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi

Toshkent shahar Kengashi tomonidan sanatoriylarga bepul yo'llanmalar topshirildi.

Shundan so'ng umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilik faoliyatini yuritish bilan birga jamoat ishlarida faollik ko'rsatib kelayotgan, o'z sohasida qator yutuqlarni qo'lga kiritgan, yosh avlod kamolotiga va yigit-qizlarning yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishlariga munosib hissa qo'shayotgan ustoz-murabbiylar "Xalq ta'limi a'lochisi", "Oliy ta'lim a'lochisi" va "Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, bir guruh faxriy o'qituvchilar va kasaba uyushma faxriylariga O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi hamda uning Toshkent shahar bo'limi kengashining faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari topshirildi.

So'zga chiqqan muallimlar va mehnat faxriylari Prezidentimiz tomonidan o'qituvchilar va faxriylarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va yaratilayotgan keng imkoniyatlar uchun o'z minnatdorliklarini bildirdi.

Tadbirda bayram ishtirokchilari uchun "Bizga maktab kerak... yoxud zamon Avloniyisi" nomli spektakl namoyishi etildi.

Muhabbat O'RMONBEKOVA, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari.

4-noyabr — UNESCO tashkil topgan kun

BMTNING "AQL LABORATORIYASI"

O'zbekistonning tashqi siyosati ochiqlik va pragmatizmga asoslangan bo'lib, unda ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish muhim o'rin tutadi. Ulardan biri BMT va uning ixtisoslashtirilgan tuzilmasi, ya'ni 1945-yil 4-noyabrda nizomi qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha idorasi — UNESCO hisoblanadi.

UNESCO ning O'zbekistondagi vakolatxonasi o'z malakasi va vakolati doirasida mamlakatning taraqqiyot sohasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashda ekspert ko'makni ko'rsatadi. UNESCO Yer yuzida tinchlikni o'rnatish, qashshoqlikni kamaytirish, barqaror rivojlanish va madaniyatlararo muloqotni ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, madaniyat, kommunikatsiya va axborot orqali targ'ib qilib boradi. Uning asosiy maqsadi ta'lim, fan, madaniyat, turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashishdir. Idorani ifodalay qilib BMTning "aql laboratoriyasi" deb atashadi. Javoharlal Neru o'z vaqtida tashkilotga "insoniyat vijdoni" deb ta'rif bergan. Bugungi kunda unga 195 ta mamlakat a'zo hisoblanadi.



UNESCO ning O'zbekistondagi faoliyati qator strategik hujjatlarga asoslanadi. Xususan, BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha 2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi, "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori shular jumlasidandir.

Tuzilma mustahkam tinchlik, adolati va barqaror rivojlanish asoslarini mustahkamlashda o'ziga xos rol o'ynaydi. Ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, madaniyat, kommunikatsiya va axborot sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish — butun dunyodagi jamiyatlar o'sib borayotgan o'zgarishlar bosimiga, xalqaro jamiyat esa yangi qiyinchiliklarga duch kelayotgan bir paytda katta strategik ahamiyatga ega. UNESCO ning malakasi va vakolati Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga imkon tug'diradi. 2015-yilda BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun tartibi — hozirda va kelajakda insonlar hamda sayyoramiz uchun tinchlik, farovonlikni ta'minlashning umumiy rejasini o'zida aks ettiradi.

UNESCO yalpi savodsizlikka qarshi kurashish, maorif tizimini rivojlantirish, milliy madaniyatlarni o'rganish, atrof-muhit va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish kabi keng qamrovli masalalarni hal etishga ham katta hissa qo'shib kelmoqda. Tashkilot tomonidan tuzilgan Umumjahon merosi ro'yxatiga Yer yuzidagi 850 ga yaqin tabiiy va madaniy obyektlar kiritilgan.

UNESCO doirasida O'zbekistonda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur kabi bobolarimizning tavallud tantanalari keng nishonlangan. Xiva, Buxoro, Termiz shaharlarining 2500-yilligi, Shahrisabzning 2700-yilligi munosabati bilan maxsus dasturlar doirasida yirik tadbirlar uyushtirilgan. Imom Buxoriy, Ahmad Farg'oniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi qator siyomlarning yirik tavallud sanalari O'zbekistonda UNESCO shafeligida keng nishonlandi.

Keyingi yillarda O'zbekiston va UNESCO o'rtasidagi amaliy muloqot izchil rivojlanib, shiriklik munosabatlari tobora mustahkamlanmoqda. Bugungi kunda UNESCO tomonidan O'zbekiston uchun birinchi marta qabul qilingan mamlakat dasturi doirasida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar samarali amalga oshirilmoqda. Mazkur tashkilot yurtimizdagi tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar, yozma va og'zaki xalq ijodiyoti, umuman, o'zbek xalqining boy merosiga katta e'tibor bilan qaraydi. O'zaro hamkorlikda "Sharq taronalari", Xalqaro baxshichilik san'ati festivallari, Xalqaro maqom san'ati anjumani o'tkazib kelimoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qo'qon, Termiz shaharlaridagi ko'plab obidalar UNESCO ning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Buxoro shahri tashkilotning "Tinchlik tarafdori bo'lgan shaharlar" sovrini bilan taqdirlangan.

O'zbekiston Respublikasining UNESCO ishlari bo'yicha milliy komissiyasi 1994-yil 29-dekabrda tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan. Jahonning ilg'or tajribasini chuqur o'rganish va jalb etish maqsadida yurtimizda UNESCO kafedralari tarmog'i kengaymoqda. O'zbekistonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida Dunyo dinlarini qiyoslama tadqiq etish, Suv diplomatiyasi, suv resurslarini boshqarish va atrof-muhit muhofazasi, Madaniyat turizmi kabi kafedralar ochilgan.

Davlatimiz rahbari Fransiyada 2018-yili amalga oshirgan tashrif chog'ida UNESCO ning Parijdagi bosh qarorgohida idora bosh direktori Odri Azule bilan muloqot o'tkazdi. Unda qayd etilganidek, tomonlar O'zbekistonning boy ma'naviy merosini tiklash va chuqur o'rganish borasida samarali hamkorlik qilib kelmoqda, madaniyat, ta'lim, fan va boshqa sohalarda turli loyihalarni birgalikda amalga oshirmoqda.

Boysun madaniy merosi, Navro'z, Shashmaqom, Katta ashula, askiya, osh, atlas va adras ishlab chiqarish texnologiyalari tashkilotning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatidan joy olgan. Usmon Qur'oni va Sharqshunoslik instituti qo'lyoz-

malar to'plami UNESCO ning "Jahon xotirasi" ro'yxatiga kiritilgan.

"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali o'zining alohida o'rni, shuhrati va maqomi bilan ajralib turadi. Ushbu festival sababli bugungi kunda afsonaviy Samarqandning uzoq o'tmishini aks ettiradigan munavvar koshonalar, muattar havosi bilan birga, bu muqaddas zamindan taralayotgan dilbar va miftunkor taronalar ham dunyo ahlini o'ziga chorlamoqda. O'tgan chorak asr davomida Samarqandning moviy gumbazlari, yulduzi osmoni ostida qanchadan-qancha sehrli navolar, hayotbaxsh ohanglar yangradi. Festival o'nlab mashhur xonanda va sozandalar, noyob yosh iste'dodlarni kashf qildi, ularning parvoziga qanot, kuch va ilhom bag'ishladi.

UNESCO O'zbekistonning muhim va dolzarb tadbirlar, anjuman va konferensiyalar o'tkazishida asosiy hamkor sanaladi. Masalan, 2021-yil sentyabr oyida mamlakatimizda "Markaziy Osiyo — jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" xalqaro madaniyat forumi o'tkazildi. Forum Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari o'rtasida do'stlik va hamkorlik, yaxshi ko'shnichilik munosabatlari rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, mintqa xalqlarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissalarni yanada chuqur anglash va o'rganishga imkon berdi. Ushbu xalqaro madaniyat forumi doirasida Xiva shahrida UNESCO bilan hamkorlikda Madaniy meros masalalari bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasi kengashining yig'ilishi, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) madaniyat vazirlarining navbatdagi majlisi, Nukus shahrida "Arxeologiya va turizm: salohiyatni belgilash va merosdan foydalanish" xalqaro arxeologiya anjumani hamda II xalqaro baxshichilik san'ati festivali, Toshkent shahrida O'zbekiston madaniy merosini asrash, o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha butunjahon jamiyatining V xalqaro kongressi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Biz mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, madaniy-gumanitar sohalarni ravnaq toptirishga xizmat qiladigan keng ko'lamli loyihalarni bundan buyon ham davom ettiramiz. Bu ezuq maqsadga faqat o'zaro hamkorlikda, sa'y-harakatlarimizni birlashtirgan holda erisha olamiz. Markaziy Osiyoning tarixiy va madaniy muhtarakligi, xalqlarimiz va mamlakatlarimizning umumiy qadriyatlarini farovon kelajakini bunyod etishimiz uchun mustahkam zamindir". Ushbu anjuman turli sivilizatsiyalar, xalqlar va millatlar o'rtasida o'ziga xos madaniy hamkorlik hamda muloqot maydoniga aylandi. Ayni paytda, buyuk fransuz adibi Viktor Gyugoning "Ezgulik va hamjihatlik — inson ma'naviy olamining quyoshidir" degan hikmatli so'zlari mana shunday yuksak g'oyalar bilan uyg'un va hamohang. Bu fikrlar bundan necha yuz yillar avval aytilgan bo'lsa-da, bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ta'lim sohasida ham istiqbolli hamkorlik o'rnatilgan. O'zbekiston "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jismoniy va ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan siyosatni amalga oshirmoqda. Davlatimiz rahbari BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi va Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomli maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. UNESCO bosh direktori O'zbekiston Prezidentining ushbu tashkilot shafeligida tinchlik va bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, ekstremizmning oldini olish maqsadida Samarqand shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro institutni tashkil etish, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzurida Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mintaqaviy markaz hamda Samarqand "lpak yo'li" turizm va madaniy meros

xalqaro universitetida UNESCO kafedrasini tuzish bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatladi. Idora O'zbekistonning butun insoniyat bo'yig'i bo'lgan madaniy-tarixiy merosni asrab-avaylash borasidagi siyosatini yuksak baholadi.

O'tgan yil 15-noyabr kuni Toshkentda o'tgan Kichik yoshdagi bolalarga tarbiya va ta'lim berish bo'yicha Butunjahon konferensiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) bosh direktori Odri Azule bilan uchrashuv o'tkazdi. O'zbekiston bilan BMT tizimidagi ushbu nufuzli institut o'rtasidagi konstruktiv va samarali hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlari muhokama qilindi. E'tiborlisi, mamlakatimiz ilk bor Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish xalqaro qo'mitasining a'zosi etib saylandi. Baxshichilik san'ati va "Lazgi" raqsi Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritildi. O'zbekistonda Tarixiy meros obyektlarini himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasi faoliyati va Mintaqaviy gumanitar hamkorlik bo'yicha "Xiva jarayoni" yo'lga qo'yildi. UNESCO, shuningdek, mamlakatimizning qishloq joylarida professional ta'lim tizimini rivojlantirishga texnik ko'mak ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston nomoddiy madaniy merosining ikkita elementi — ipakchilik va Xo'ja Nasriddin latifalari UNESCO ro'yxatiga kiritildi. Ular tashkilotga Ozarbayjon, Eron, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiya bilan hamkorlikda O'zbekiston tomonidan qabul etildi. Bu bilan representativ ro'yxatga kiritilgan O'zbekiston elementlarining umumiy soni 11 ga yetdi.

Yana bir muhim tadbirga e'tiborni qaratish joiz. O'zbekiston Prezidentining yordamchisi Saida Mirziyoyeva va UNESCO bosh direktori Odri Azule shu yil 4-sentyabr kuni tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohida "Abu Rayhon Beruniy. Geografik va intellektual sayohatlar" ko'rgazmasini ochib berdi. Ko'rgazma buyuk alloma tavalludining 1050-yilligiga bag'ishlandi. Tashrif buyuruvchilar vizual installyatsiyalar yordamida Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ijodi, kashfiyot va izlanishlari haqida ma'lumot olishdi. Ekspozitsiyada alomanning Fransiya milliy kutubxonasi fondidan yig'ilgan qo'lyozmalariga alohida joy ajratildi. Ushbu loyiha Yevropa jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otib, buyuk allomalarni merosi bilan faxrlanadigan o'zbek zamini haqidagi tasavvurlarini yanada boyitdi. Saida Mirziyoyeva O'zbekiston UNESCO bosh konferensiyasining 43-sessiyasini 2025-yilda Samarqandda o'tkazishga tayyorligini ma'lum qildi. Agar ushbu ta'lim ma'qullansa, bu tarixiy voqea UNESCO sessiyalarini faqat Parijda chaqirish bo'yicha 40 yildan oshiq davom etgan an'anani o'zgartira oladi.

O'zbekistondagi Jaloliddin Rumiy asarlari kulliyoti UNESCO ning Jahon xotirasi xalqaro ro'yxatiga kiritilgan O'zbekiston va turkiy xalqlar hayotidagi muhim hodisa bo'ldi. Jaloliddin Rumiy asarlari kulliyoti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasi saqlanmoqda. Mavloni asarlari nafaqat yuksak badiiyligi, balki ularga singdirilgan kuchli hayot falsafasi bilan ommani o'ziga rom etib kelgan. Uning "Fihri mo'fihiy" ("Ichingdagi ichingdadir"), "Mavoizi majolisi sab'a" ("Yetti majlis mav'izalari") va "Maktublar" yaratilganiga yetti asrdan ortiq vaqt o'tganiga qaramay, ularga bo'lgan qiziqish ortsa ortiki, lekin aslo susaymadi. Alomanning asarlari Sharqshunoslik instituti xazinasi saqlanishda davom etadi. Faqat endilikda bu UNESCO tashkiloti homiyligida amalga oshiriladi.

Muxtasar aytganda, UNESCO O'zbekistonning boy tarixiga befarq emas. Masalan, Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan UNESCO Umumjahon merosi qo'mitasining 45-kengaytirilgan yig'ilishida O'zbekiston uchun yana bir muhim voqea sodir bo'ldi. O'zbekiston ishtirokidagi "Mo'tadil mintaqadagi Turon cho'llari" transchegaraviy tabiat obyekti tashkilotning Umumjahon tabiiy merosi obyektlari ro'yxatiga kiritildi.

UNESCO bilan hamkorlik kengayib borishi O'zbekistonning fan, ta'lim va madaniyat sohasidagi yanada yuksak yutuqlarni qo'lga kiritishiga, bu esa yurtimizning dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'shishiga, ko'p asrlik tarixga ega madaniy merosimizni asrab-avaylash, muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, qolaversa, dunyo miqyosida keng targ'ib etishga imkon beradi.

Abduvali SOYIBNAZAROV ("Xalq so'zi").

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

TANLOV E'Lon QILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yilligiga bag'ishlangan yubiley tadbirlarini o'tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-298-sonli qarorining 4-bandi, 4-xatboshida belgilangan Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolariga (akademiklikka) tanlov o'tkazish topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida va Fanlar akademiyasi Ustavining 45 va 49-bandlariga binoan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolariga (akademiklikka) quyidagi fan tarmoqlari bo'yicha tanlov e'lon qiladi:

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari uchun fan tarmoqlari bo'yicha ajratilayotgan KVOTALAR

Table with 4 columns: №, Fan tarmog'i, Ajratilayotgan kvota (Jami, Shundan 60 yoshgacha). Lists 22 scientific fields and their respective quotas.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Ustavi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademiklik)ni tanlov asosida saralash va tasdiqlash tartibi haqida Nizom"ga asosan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolariga (akademiklikka) nomzodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi va kamida so'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasida doimiy ishlagan bo'lishi;

fan doktori ilmiy darajasi va professor ilmiy unvoniga ega bo'lishi;

ilm-fanning muayyan sohasida ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan, fanni shaxsan o'zi yoki ilmiy va ilmiy-texnik muammolar bo'yicha jamoa bo'lib ishlashda faol ishtirok etish asosida erishgan shaxsiy yutuqlari hamda salmoqli ilmiy natijalari bilan boyitgan olim bo'lishi;

o'z yo'nalishida yangi ilmiy maktab tashkilotchisi va rahbari yoki mavjud ilmiy maktabning rivojida bevosita ishtirok etgan bo'lishi va bu uning fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari hamda kamida ikki fan doktori (tibbiyot fanlari uchun — kamida uch fan doktori) tayyorlashi bilan tasdiqlangan bo'lishi;

joriy etilgan ishlanmalarga egaligi yoki u rahbarlik qilayotgan xodimlar jamoasi erishgan fan yutuqlari ishlab chiqarishga joriy qilinishida hamda amaliyotda foydalanilishida bevosita ishtirok etgan bo'lishi;

fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarning ilmiy rahbari ekanligi yoki so'nggi yillarda shu yo'nalishdagi ilmiy loyihalarga rahbarlikni amalga oshirgan bo'lishi;

xalqaro ilmiy hamkorlikdagi xalqaro ilmiy loyihalarda ilmiy rahbar bo'lishi yoki ularning bajarilishida ishtirok etishi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ustavining 51-bandiga binoan Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzodlarni ilgari surish huquqi Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademiklik)ga ularning ilmiy mutaxassisliklariga tegishli ixtisosliklar bo'yicha, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-texnik kengashlariga beriladi.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzodlarni dastlabki saralash ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tegishli ilmiy yoki ilmiy-texnik kengashlar yig'ilishlarida ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Vakolatga ega kvorum — tegishli kengash ro'yxatiga kirgan a'zolari tarkibining majlisida ishtirok etayotgan kamida 75 foizi mavjud bo'lganda ovoz berishda ishtirok etgan ilmiy yoki ilmiy-texnik kengash a'zolari kamida uchdan ikki qismining ovozi to'plagan talabgorlar Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzodlar hisoblanadi.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzodlar ko'rsatgan ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari 2023-yil 17-noyabrga qadar Fanlar

akademiyasiga nomzodlarning ilmiy va ilmiy-tashkiliy faoliyatini tavsiflovchi hujjatlarni ro'yxatga olish uchun taqdim etadilar.

Ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari rahbarlari Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzodlar ko'rsatish jarayonining xolisligi va taqdim etilayotgan hujjatlarning haqqoniyligi uchun shaxsan javobgardirlar.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzod ko'rsatish uchun taqdimnomaga quyidagilar (2 nusxada) ilova qilinadi:

ilmiy tashkilotning nomzodning tanlov talablari va mezonlariga javob berishi haqidagi asoslangan xulosasi, ochiq ovoz berish natijalari hamda tanlov mezonlarining qog'oz va elektron shaklda to'ldirilgan va tasdiqlangan shakli nomzodning tanlov reytingi "Web of Science" bazasiga kiritilgan (https://www.webofscience.com/...) ma'lumoti asosida hisoblanadi (tanlov mezonlari shakli Fanlar akademiyasining veb-saytida (https://academy.uz) joylashtirilgan);

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzodning tarjimai holi;

xodimlarni hisobga olish bo'yicha surati yopishtirilgan shaxsiy yaraqa hamda ma'lumotnoma (obyektivka);

ish joyidan tasdiqlangan mehnat daftarchasining nusxasi yoki Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzodning kamida so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasidagi mehnat faoliyatini tasdiqlovchi boshqa hujjat;

fan doktori ilmiy va professor attestati nusxalari; ilmiy ishlar ro'yxati (konferensiya tezislari bu hisobga kirmaydi) va nolga teng bo'lmagan impact-faktorli ("Web of Science" xalqaro ma'lumotlar bazasiga muvofiq) xorijiy nashrlardagi maqolalarning nusxasi;

xorijiy patentlarning nusxalari (agar mavjud bo'lsa); Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzod tomonidan tayyorlangan fan nomzodlari va falsafa doktorlari ro'yxati (avtoreferatlarni ilova qilgan holda);

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzod tomonidan tayyorlangan fan doktorlari ro'yxati (avtoreferatlarni ilova qilgan holda);

yuqorida keltirilgan talablarga muvofiq, Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzod tomonidan fanning muayyan sohasi rivojiga qo'shilgan hissa, fanni shaxsiy ilmiy yutuqlar va xalqaro ahamiyatga molik natijalar bilan boyitilganligi, shuningdek, uning ilmiy-tashkiliy faoliyati haqidagi davlat va rus tillaridagi qisqacha ma'lumotnoma (ko'pi bilan 1 bet, satr balandligi 12 pt, Times New Roman shriftda);

pasport nusxasi va 4x6 sm. o'lchamdagi 8 ta fotosurat.

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolari (akademikligi)ga nomzodning har bir nusxa hujjatlari alohida jildga joylanadi. Jildning muqovasida nomzodning familiyasi va ismi-sharifi, fan sohasi bo'yicha ilmiy ixtisosligi hamda tavsiya etayotgan ilmiy tashkilot yoki oliy ta'lim muassasasining to'liq nomi yoki akademikning ismi-sharifi va ixtisosligi ko'rsatiladi.

Nomzodlarning hujjatlari 2023-yil 17-noyabrga qadar (soat 11:00 dan 18:00 gacha) quyidagi manzilda qabul qilinadi:

100047, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,

Y. G'ulomov ko'chasi, 70-uy;

Ijtimoiy-gumanitar fanlari yo'nalishi bo'yicha 1-qavat, 102-xona, tel. (+998 71) 233-76-07.

Kimyo-biologiya, tibbiyot va qishloq xo'jaligi fanlari yo'nalishi bo'yicha 1-qavat,

105-xona, tel. (+998 71) 233-47-91.

Fizika-matematika va texnika fanlari yo'nalishi bo'yicha 1-qavat 108-xona,

tel. (+998 71) 233-68-95.

Advertisement for Xalq so'zi Narodnoe slovo. Includes contact information for the editorial office, phone numbers, and a QR code for subscription details.